

To‘rayeva Charosoy Ilhom qizi.

Osiyo Xalqaro Universiteti “Iqtisodiyot va Pedagogika” fakulteti

1-Bt-23 guruhi 2-bosqich bakalavr talabasi.

Ilmiy rahbar

Tursunova Zarina Ne’matovna

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotasiya: *Adabiylikka daxldor badiiy asar yozish bir san’at bo’lsa, uni o‘qitish ham bir san’atdir. Hech bir fan millat tafakkurni adabiyotchalik o’sтира olmaydi. Shuning uchun ushbu maqola adabiyot fanining boshqa fanlar bilan fanlararo integratsiyalashgan holda o‘qitish uchun amaliy ko‘rsatmalar hamda adabiyot o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanishning nazariy qirralari haqida fikrlar yuritilgan.*

Аннотация: *Если написание литературного произведения — это искусство, то и его преподавание — тоже искусство. Ни одна другая дисциплина не может так развивать национальную мысль, как литература. Поэтому в данной статье приводятся практические рекомендации по преподаванию литературы посредством междисциплинарной интеграции с другими дисциплинами, а также теоретические аспекты использования междисциплинарной интеграции в преподавании литературы.*

Abstract: *If writing a literary work is an art, then teaching it is also an art. No other subject can cultivate the national mindset like literature. Therefore, this article discusses practical guidelines for teaching literature in an interdisciplinary manner with other subjects, as well as theoretical aspects of using interdisciplinary integration in teaching literature.*

Kalit so'zlar: *Integratsiya, fanlararo aloqa, integratsiya turlari, integrativ dars, adabiyot, ona tili, tarix, musiqa.*

Аннотация: *Интеграция, междисциплинарная коммуникация, типы интеграции, интегративный урок, литература, родной язык, история, музыка.*

Keywords: *Integration, interdisciplinary communication, types of integration, integrative lesson, literature, native language, history, music.*

Adabiyot o‘qitish samaradorligiga erishish hamda fanlararni integratsiyaning o‘rnini belgilash kun tartibidagi dolzarb muammolardan sanaladi. Negaki olamdagi barcha narsa-hodisalar o‘zaro uyg‘unlik va aloqadorlikda mavjud bo‘lgani kabi

dunyoni o‘rganishning yo‘li bo‘lmish ta’lim jarayonida ham barcha o‘quv fanlari integrativ yo‘sinda o‘qitilishi zarur. Bundan adabiy ta’lim ham mustasno emas. Ma’lumki, adabiyot fani birinchi navbatda ona tili predmeti bilan ajratib bo‘lmaydigan darajada yaqin aloqadorlikda mavjud. Negaki, adabiyot so‘z san’ati sifatida ona tiliga tayanadi, undan quvvat oladi. Ona tili darslarida badiiy matnlarning til xususiyatlarini adabiyot saboqlarida esa so‘zlarning ma’no tovlanishlari integrativlik asosida o‘rganish darslar samaradorligini

oshiradi. Ona tili saboqlarini adabiy matnlar vositasida o‘qitish zarur. Adabiyot darslarida olingan nazariy ma’lumotlardan ona tili

darslarida foydalanish bilimning mustahkamligini ta’minlaydi.

Muayyan bir predmetni o‘qitishda o‘rganilayotgan mavzuning tabiatidan kelib chiqqan holda boshqa o‘quv fanlari bilan turli darajada integratsiya amalga oshiriladi. Mutaxassislarining ta’kidlashlaricha, o‘quv fanlari o‘zaro aloqadorlik darajasi bo‘yicha

a) bir tomonlama: b) ikki tomonlama: d) ko‘p tomonlama integratsiyalanishi mumkin. Bir tomonlama integratsiyalanishda bir xildagi o‘quv fanlaridagi mavzuni yoritishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan jihatlardan foydalanish kerak bo‘ladi. Masalan, adabiyot sabog‘idagi biror mavzuni o‘rgatishda qozoq yoki qoraqalpoq adabiyotidagi ayni shunga o‘xshash mavzudan foydalanilsa, bir tomonlama integratsiya yuzaga keladi. Agar adabiyot sabog‘idagi biror mavzuni o‘rgatishda ona tili, tarix yoki jug‘rofiya fanlaridan biriga doir ma’lumotlar ishlatilsa ikki tomonlama integratsiya paydo bo‘ladi. Bordi-yu, adabiyot darsidagi qaysidir mavzuni yoritishda ikkitadan ortiq fanga tegishli ma’lumotlar qo‘llanilsa, ko‘p tomonlama integratsiya hosil bo‘ladi. Bunda mutaxassislar shu integratsiya terminining mohiyatini ochish uchun turli fikrlarni bayon etadi. Bizning fikrimizga monand ba’zi dunyo olimlarining qarashlari quyidagicha: “O‘quvchilarda olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilish orqali ularning aqliy rivojlanishiga erishish maqsadida ta’lim mazmunining tarkibiy unsurlari o‘rtasida uzviy aloqadorlik bo‘lishini ta’minlash jarayoni ta’limdagi integratsiya deyiladi”¹. Ta’lim tizimidagi integratsiya o‘quvchilar bilimining takomillashuvida ola quroq va chala-chulpa bo‘lmasligi, ularning yaxlit bilim va universal insoniy hamda milliy qadriyatlar egasi bo‘lishini ta’minlaydi. Turli davrlarda ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish muammosiga Ya. A. Komenskiy, I.G.Pestalotsi, J.J.Russo, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, I.G.Reves, I.D.Zverevlar; o‘zbek olimlaridan R.Mavlonova, N. Rahmonqulova, S.Dolimov, V.Qodirov,

A.Zunnunov, H.Ubaydullaev, J.Esonov, N.Hotamov, Q.Yo‘ldosh, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, K.Abdullaev, V.Qodirov, R.Saidova, M.Suyunova, G.Rahimova, K.Mavlonova kabi olimlar

munosabat bildirganlar. Adabiyot va ona tili o‘quv fanlarini badiiy matn orqali o‘zaro aloqadorligini belgilashda bir necha asosiy yondashuvlar qatori kommunikativ yondashuv ham alohida o‘rin tutadi. Badiiy matnning estetik ta’siri emotsional-ekspressiv til hodisalari, badiiy tasvir vositalari yoki she’riy san’atlar yordamida hosil qilinadi. Professor Q.Yo‘ldoshev bu xususda “His etilmagan, anglanmagan go‘zallik ma’naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi”² deb ta’riflaydi. Tilning asosiy funksiyasi kommunikatsiya – xabar qilish ma’nosida kelib, ta’sirlilik esa kommunikatsiyaga qo‘shimcha bo‘ladi: bayon qilinayotgan fikrga qo‘shimcha ravishda xursandchilik, xafa bo‘lish, erkanlanish va hokazolar ham qo‘shiladi. Demak, ona tili darslarida mashq materiali sifatida berilgan badiiy matnlarga ta’limiy va tarbiyaviy jihatdangina emas, balki estetik ta’sir nuqtai nazardan qarash ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunga o‘xshash yondashuv o‘qituvchini ikki o‘quv fanini o‘zaro integratsiyalashga undovchi omil ekani ko‘rinadi.

O‘quv materiallari integratsiyasining uch ko‘rinishi mavjudligi:

1. Bir o‘quv fani ichidagi integratsiya. Bunda bir predmetga doir tushuncha, bilim, ko‘nikmalar o‘rtasidagi aloqadorlik ta‘minlashi ko‘zda tutiladi.

2. Fanlararo integratsiya. Bunda ikki yoki undan ortiq fanlarning tushuncha, bilim va ko‘nikmalari o‘rtasidagi integratsiya anglashiladi.

3. Transfanlararo integratsiya. Bunda asosiy o‘quv fanlari bilan qo‘shimcha ta‘lim mazmuni o‘rtasidagi integratsiya tushuniladi.

O‘zbek ziyolilari va faylasuflarning bir qator ilmiy ishlari hozirgi bosqichda Rossiya ta‘lim tizimidagi integratsiya jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangandek go‘yo. Ularni quyidagi tamoyillar asosida tasniflash mumkin. Ta‘limning pedagogik jarayonga singib ketgan didaktik (pandona) tamoyil sifatida integratsiyasini A.Y.Danilyuk o‘rgangani ilmda ma‘lum. Umumiy o‘rta

maxsus va oliy kasbiy ta‘limda integrativ yondashuvni qo‘llash D.A.Artemeva, M.N.Berulava, I.G.Eremenko, Y.V.Bondarevskaya, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Boloniya o‘quv jarayonida Rossiya ta‘lim tizimining jahon ta‘lim makoniga integratsiyalashuvini I.Gretchenko, B.L.Vulfson, I.G.Timoshenko, T.S.Kashlacheva va boshqalar o‘rganganlar. Ilmiy pedagogik jarayonda ham fan ichidagi, ham fanlararo aloqalarni boshqarish, integrallashgan kurslar, bloklar va platformalarni shakllantirilib,

A.Ignatova, V.M.Maksimova, N.M.Belyankova, I.B.Bogatova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ob‘ektiga aylandi. Ikki turdagi bilimlarning (ilmiy va gumanitar) hayot va ta‘limda integratsiyalashuvi muhimdir – deb yozgan edi, A.A.Salamatov, Ye.A.Sokolov va boshqalar. Integratsiya ta‘lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning sharti sifatida uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga asoslangani e‘tiborni tortadi: Ekologik yondashuv, mintaqaviy yondashuv, poliartistik (ko‘p madaniyatli) yondashuvdir. Ta‘limdagi integratsiya, aynan, shu tizimini rivojlantirishda pedagogik, ijtimoiymadaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro ta‘siri hamda bu sohada an‘analari innovatsiyalarning birgalikda yashovchanligiga xizmat qiladi. O‘quvchilarning adabiyotdan oladigan bilimlariga tayanish qonuniyati ajratilib, unga ko‘ra badiiy matnning til xususiyatlari ikki o‘quv fani bo‘yicha beriladigan bilimlar doirasida muvofiqlashtiriladi. Masalan, ona tili darslarida so‘zning ko‘chma ma‘nosi haqida gap ketganda, badiiy matn orqali adabiyotdan o‘tiladigan ko‘chim haqidagi nazariy ma‘lumotga murojaat etish mumkin. Omonim so‘zlar o‘rganilgandan so‘ng badiiy matndan tajnisni toptirish va uning badiiy qiymatini sharhlash mumkin.

A.Zunnunov va A.Aliyevlarning “Adabiyotni boshqa gumanitar fanlarga bog‘lab o‘rganish” nomli metodik qo‘llanmasida to‘g‘ri ko‘satilganidek, maktabda har bir o‘quv fanini, jumladan, adabiyotni o‘rganishda o‘quvchilarning anglash, fikrlash, ayniqsa, nutqiy faoliyati alohida o‘rinni egallashi haqida fikrlar bor. Shu sababli darslarda o‘quvchilardan adabiy matnni to‘g‘ri o‘qish, anglash, o‘qiganlarini amaliy tajribada bevosita qo‘llash malakalarini o‘stirishga ahamiyat beriladi. Shu bilan birga ularda obektiv hayotdagi voqea va predmetlar orasidan muhimlarini ajratib olish, belgi va xususiyatlarga qarab, ularni guruhlantirish ko‘nikmasi ham tarbiyalab boriladi. Shu boisdan ham adabiyotni boshqa gumanitar fanlar – ona tili, tarix, tarbiya, geografiya va estetik yo‘nalish fanlari – tasviriy san‘at, musiqa bilan bog‘lab o‘qitiladi. Adabiyot darslarida o‘rganiladigan nazariy

10-Aprel, 2025-yil

tushunchalar, ularni o‘rgatish usullarini aniqlash, adabiy ta’lim mazmunini ona tili ta’limi mazmuni bilan integratsiyalash tadqiqotning muhim jihati hisoblanadi. Ishda mazkur masalalar 6- sinfdagi adabiyot darsligida o‘tilayotgan nazariy ma’lumotlar, darslik-majmualarida asarlar yuzasidan keltirilgan savol va topshiriqlar tahlili asosida aniqlashga harakat qilinadi.

Integratsiyali darslarni tashkil qilish yuzasidan yuqorida bildirilgan fikr mulohazalardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘quv dasturlarida o‘zaro uyg‘unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya, ya’ni mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlash. Tarix va adabiyot, milliy istiqlol g‘oyasi, botanika faniga oid mavzu matnlarni ona tili darslarida berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Modullashgan integratsiyada turdosh o‘quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda beriladi.

3. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan o‘quv materiallari bilan uyg‘unlashtiriladi.

O‘quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta’lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo‘riqish sarflanishlarining oldi olinadi. Bugundagi ta’limning maqsadi barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshiradigan-tizim ichida o‘zgarishlar qilishni taqozo etadigan «innovatsion» tushunchadir. Bu tushuncha yangilik ma’nosini bildirib, ta’lim islohotlarida nazarda tutilgan ta’limda totalitarlikdan demokratik ta’lim tizimiga o‘tish, shaxsning qiziqishlari, qobiliyatini hisobga olish, ta’limni insonparvarlashtirish, ta’lim tizimini jamiyatning iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishni ta’minlaydigan ta’lim tizimini shakllantirishga sharoit yaratish kabilarni hisobga olish zarur. Aytish joizki, til hodisasining poetik jihati o‘rganilgandan so‘ng uning yangi jihati – badiiy qiymat yaratish xususiyatiga o‘tish o‘quvchilarda adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Badiiylikni ta’minlovchi vositalar bilan amaliy maqsadlarda tanishish istagini uyg‘otadi. Ayniqsa, ijod sir-asrorlarini o‘rganish, ijodiy topshiriqlarni bajarish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O‘quvchilarning Vatan, ona haqida, bahor, kelajak to‘g‘risida yozgan insholarida ichki hayajon, to‘lqinlanish, faxr va g‘urur tuyg‘ulari sezilib turadi. So‘zlar zahirida yashiringan ushbu ruhiy holatlar inshoni badiiylashtirishga undovchi qudratli omil bo‘lib maydonga chiqadi. Tabiiyki, mavzuni yoritish jarayoni o‘quvchilarni bo‘yoqdor,

ko‘tarinki so‘zlar, so‘z shakllari va gaplar bilan o‘z tuyg‘ularini bayon etishga da’vat qiladi. Adabiyot darslarida o‘rganilgan nazariy tushuncha va ma’lumotlardan integratsiyalash asosida foydalangan holda badiiy matnning til xususiyatlarini o‘rganish mazmuni yaxlit bir mexanizmni tashkil etishi kerak. Bu mexanizm, birinchi navbatda, ta’lim maqsadlariga mos ravishda tanlanadigan bilimlarni o‘rgatish, ularniko‘nikma va malakalarga aylantirish uchun xizmat qiladigan ish turlari izchilligi yordamida ta’minlanishi zarur.

XULOSA:

O‘qituvchi badiiy matnda so‘z va so‘z shakllarini ishlatish mahoratiga o‘quvchilarning e‘tiborini tez-tez qaratib tursa, bu ishlar ularda ijobiy odatlar, tegishli

malakalarning shakllanishiga yordam bergan bo‘ladi. Matndagi badiiy tasvir vositasini topish va izohlashga doir savol hamda topshiriqlar o‘quvchilarda til hodisalariga nisbatan yangicha qarashni yuzaga keltiradi, ularning fikrlashini badiiy ijod sir-asrorlari sari yo‘naltiradi; savol va topshiriqlar o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi, hayot lavhalari asosida qanday badiiy-tasvir vositalari bilan fikr yuritish, obraz yaratish mumkinligidan saboq beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabalari uchun darslik): JK. QosimovaJ, S.Matchonov, X. G‘ulomova,Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev.T.: «NOSHIR», - 2009.
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari.,T.: O‘qituvchi.– 1996. B.68.
3. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. Modern Science and Research, 2(9), 424-428.
4. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS. Modern Science and Research, 2(9), 350-352
5. Bahodirovna, H. N. (2023). TA‘LIM JARAYONIDA BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O ‘QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 209-209.
6. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. Modern Science and Research, 2(9), 390-394.
7. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.
8. Kozimova, N. A. (2023). BUGUNGI TA‘LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O‘QUVCHI SHAXSINING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 44-46.V
9. Abduqahhorovna, N. K. (2023). PSIXOLOGIK KONSULTATSIYAGA MUROJAAT QILUVCHI OTA–ONALARNING FARZAND TARBIYASI MUAMMOLARINI O‘RGANISHDA HADISLARDAN TERAPIYA SIFATIDA FOYDALANISH.
10. Sobirovna, S. Y. (2023). O ‘YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. SAMARALI TA‘LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(3), 93-99.

10-Aprel, 2025-yil

11. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(2), 87-92.
12. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. Modern Science and Research, 2(10), 777-779.
13. Лукмонова, С. (2022). БО ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHISINING RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH: